

## Osh musobaqasida

2018 yil 2 mart kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 4-sonli talabalar turar joyida "Gidromelioratsiya fakulteti" 1-bosqich talabasi Oxun Amanov tashabbusi bilan o'g'il bolalar o'rtasida "Osh pishirish" musobaqasi "Gidromelioratsiya" fakulteti ma'naviy ishlari bo'yicha dekan muovini Xayrulla To'ychiev, 4-sonli talabalar turar joyi mudirasi Dilfuza Aminova hamda tarbiyachi pedagog Javlonbek Qutlimurotovlar xamkorligida o'tkazildi.

Osh musobaqasini baholash uchun hakamlar hay'ati a'zolari - Ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektor Qodirjon Shavazov, talabalar turar joyi direktori Zokir Yuliev, Magistratura bo'limi boshlig'i Asror Yangiev, "Gidromelioratsiya" fakulteti dekani Alisher Fatxullaev, "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti dekani Olim Kucharov, "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti dekani Baxriddin Xasanov, "Erdan foydalanish va yer kadastri" fakulteti dekani Zarif Muqimov, "Gidromeliorativ ishlarini mexanizatsiyalash" fakulteti dekani Begmat Norov, "Qishloq suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish" fakulteti dekani Akbar Gapparov, Institut Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi Akmal Berdimurodov, "Gidromelioratsiya" fakulteti barcha dekan o'rinbosarlari, kafedra mudirlari, o'qituvchilari qatnashishdi.



Osh musobaqasida yaqindan yordam bergan "Gidromelioratsiya" fakulteti yoshlar yetakchisi Sardor Vapaev, Ulug'bek Manzirboev, Shaxzod Egamov, Nurbek Kamolovlarga minnatdorchilik bildiramiz.

Musobaqa g'oliblariga institut rektori tomonidan 1-2-3-darajali diplom, faxriy yorliq, hamda qimmatbaho sovg'alarni ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektori Qodirjon Achilovich Shavazov topshirdi.

**4 -TTJ tarbiyachi pedagogi Javlonbek Qutlimurotov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**